MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
OKTABR / 10-SON II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSTIETI

TOSHKENT

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, oktabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

O‘ZBEKISTONDA QAYTA SUG‘URTA MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH: BOZOR TENDENSIYALARI VA XALQARO TAJRIBA 9
Abirkulova Sohibjamol Normuxammad qizi
KUZATUV KAMERALARI VIDEOMA’LUMOTLARI ASOSIDA TALABALAR DAVOMATINI HISOBGA OLISHNING INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMI ALGORITMLARI VA DASTURIY TA’MINOTI 15
Melibayeva Xilolaxon Numonjon qizi
REGIONAL DISPARITIES IN FOREIGN INVESTMENT AND EXPORTS IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FOR THE TERRITORIAL TIER OF INVESTMENT GOVERNANCE 20
Imamov Javokhir
RAQAMLI PLATFORMA VA XALQARO MARKETING ASOSIDA O‘ZBEKISTON TA’LIM TURIZMI EKSPORTINI OSHIRISH MEXANIZMI 25
Nigmatova Malika Baxtiyorovna
РИСКИ ИИ-АВТОМАТИЗАЦИИ ПРОФЕССИЙ ДЛЯ ВЫПУСКНИКОВ ШКОЛ УЗБЕКИСТАНА: ПРОФОРИЕНТАЦИОННЫЙ АСПЕКТ 31
Сагдуллаев Шукурулло Комил угли
POMIDOR URUG‘LARIGA KO‘RINUVCHI OPTIK NURLANISH VA O‘ZGARUVCHAN MAGNIT MAYDON BILAN KOMBINATSIYALANGAN ISHLOV BERISHNING KO‘CHAT SIFATI VA HOSILDORLIKKA TA’SIRI 36
Rasulov Davronbek, Eshpulatov N.
TO‘QIMACHILIK SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA NATIJAGA ASOSLANGAN YONDASHUV 41
Mahmudova Chinora
BIZNESNING BARQAROR O‘SISHINI TA’MINLASHDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK AHAMIYATI 47
Suyunova Kamilla, Xamroyeva Kumush
XORAZM VILOYATINING DEMOGRAFIK-IQTISODIY RIVOJLANISHI VA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING SHAKLLANISHI 51
Sobirov Javoxir Xayrulla o‘g‘li
ВЕЩЕСТВЕННЫЙ СОСТАВ ЗОЛОТОГО ОРУДЕНЕНИЯ МЕСТОРОЖДЕНИЯ ЧАКМАКТАШ 60
Исаходжаев Х. Б., Ишбобаев Т. Б., Пирназаров М. М., Муминов М. Б., Мирзаходжаев Т. Р.
YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘QON SHAHRI IQTISODIYOTINING TARMOQLAR KESIMIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 66
Qodirov Abubakr, Egamberdiyev Muzaffar
DEPOZIT STAVKALARI PASAYISHI SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDAGI VOSITACHILIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMADLARNI SHAKLLANTIRISH 71
Ortiqboyev Bahrom Bahodir o‘g‘li
MEHNAT SAMARADORLIGI VA BANDLIKNING XIZMATLAR SEKTORIDAGI IQTISODIY AHAMIYATI 75
Djurayev Olimjon Narkulovich
МОДЕЛЬ КОМПЛЕКСНОГО АНАЛИЗА ПРОЦЕССА КОМПЬЮТЕРНОЙ РАЗВЕДКИ ИНФОКОММУНИКАЦИОННЫХ СИСТЕМ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА 80
Бекбаев Гамзатдин Алеуатдинович
O‘ZBEKISTONDA YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIDA SUN’IY INTELLEKT BO‘YICHA TADQIQOTLAR VA ADABIYOTLAR SHARHI 87
Uteuliev Niyetbay, Saytov Kamiljan
АНАЛИЗ ТЕКУЩИХ ПРОЕКТОВ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА С УЧАСТИЕМ МЕЖДУНАРОДНЫХ ФИНАНСОВЫХ ИНСТИТУТОВ 94
Атаджанова Динара Хасановна

INVESTITSIYA RESURSLARINI YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI TARMOQLARGA QAYTA TAQSIMLASH ORQALI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR VA IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI KUCHAYTIRISH..... 101
Yoqubova (Sheraliyeva) Zilola Tura qizi
SIZING THE APERTURE AREA, PHASE-CHANGE TEMPERATURE AND STORAGE CAPACITY OF A SOLAR-CONCENTRATOR-DRIVEN PCM RADIANT FLOOR 107
Jurabek Kamolov, Sokhib Temirov Marjona Makhmudova
O‘ZBEKISTONDA SOLIQ XAVFLARI BO‘YICHA TUSHUNTIRISHLI XABARNOMALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 118
Abdurakhmanov Olim Kalandarovich
QASHQADARYO VILOYATIDA YETISHTIRILGAN QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING XO‘JALIK TOIFALARI BO‘YICHA TAHLILI 123
Nurxonov Nurkomil Qahramon o‘g‘li
KICHIK BIZNESNI YASHIRIN IQTISODIYOTDAN CHIQARISHDA RAQAMLASHTIRISH VA MOLIYAVIY SHAFFOFLIK MEXANIZMLARI 129
Yunusov Marat Erkinovich
BARQAROR TRANSPORT XIZMATLARI UCHUN “YASHIL” INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 135
Quliyev Begimqul Melikovich
BO‘LAJAK VETERINAR MUTAXASSISLARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY AMALIYOT 141
Narziyeva Nargiza Norkuziyevna
O‘ZBEKISTONDA MILLIY VALYUTADAGI MUDDATLI DEPOZITLAR BO‘YICHA FOIZ STAVKALARINING DINAMIKASI VA DIFFERENSIALLASHUVINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 146
Mamatkulov Nurbek Kamiljon o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOT LOYIHALARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 154
Bo‘riyev Sherbek Akrom o‘g‘li
SEGMENTAR HISOB VA HISOBOTNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLARI HAMDA ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI 162
U. A. Shirinov
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINI BAHOLASHNING KENGAYTIRILGAN KO‘RSATKICHLAR TIZIMI 168
Akbarova Malika Ilxomovna
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLAR ICHKI AUDITINI AMALGA OSHIRISH METODIKASINING AMALDAGI HOLATINI BAHOLASH 173
Mulayev Farxod Alisherovich
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ОЦЕНКИ ВЛИЯНИЯ INDUSTRY 4.0 НА ПРОИЗВОДСТВО 178
Кудайназарова Дилназ Кошкарбаевна
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING IQTISODIY TARAQQIYOTDAGI O‘RNI 184
Raxmatov Mirshams, Pardayeva Asalxon
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIKNI ERTA ANIQLASHNING MOLIYAVIY-ANALITIK MEXANIZMLARI VA INTEGRAL BAHOLASH TIZIMI 191
Xusainov Shavkat Abdushukurovich
“YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA ESG TAMOYILLARI ASOSIDA BARQAROR BOSHQARUV MODELINI SHAKLLANTIRISH 198
Maxmudov Baxriddinxon Jo‘rayevich
TOG‘ VA TOG‘OLDI HUDUDLARIDA QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHINI TASHKIL ETISHGA TABIIY SHAROITLARNING TA’SIRI 206
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

IVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA XALQARO KREDIT LINIYALARI RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH 212
Aliyev Bekzod Ilhomovich
KABEL SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSION-INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH: “UZKABEL” AJ QK MISOLIDA 218
Igamberdiev Karimberdi Abdullaevich
TRANSPORT INFRATUZILMASIDA INKLUZIVLIKNI TA’MINLASH (BUXORO SHAHRI MISOLIDA) 224
Bomurodova Madina Voxidjon qizi
“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AJ SANOAT KORXONALARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 230
Rizayev Faxriddin Ramziddin o‘g‘li
ПРОИЗВОДСТВО МЯСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ ОГРАНИЧЕННОСТИ РЕСУРСОВ: ДИНАМИКА, СТРУКТУРНЫЕ СДВИГИ И ФАКТОРЫ ЗАМЕДЛЕНИЯ РОСТА 235
Мамедов Первиз, Назаркулов Умиджан
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОПЛАТЫ ТРУДА И МОТИВАЦИИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ГОСУДАРСТВЕННЫХ КОМПАНИЙ: ПРИМЕНЕНИЕ КИТАЙСКОЙ МОДЕЛИ «ТРЁХ СИСТЕМ» В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА 244
Хусаинов Равшан, Ren Peng
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ СТРУКТУРЫ КАПИТАЛА КОМПАНИЙ НА ИХ СТОИМОСТЬ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА 250
Алиева Сусанна Сейрановна
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI 256
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich
ISH HAQI HISOBINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA ICHKI NAZORATNI TASHKIL ETISH 262
Raximov Anvar Maxmarasulovich
QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI KO‘P OMILLI EKONOMETRIK MODEL ASOSIDA BAHOLASH VA ISTIQBOLLASHTIRISH 267
Sarimsakov Baxtiyor, Usmonov Jahongir
TANNARXNI BOSHQARISH VA TANNARX BUXGALTERIYA HISOBIDA PROGNOZLASHTIRISH MASALALARI 272
Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna
MECHANISMS FOR DEVELOPING INTEGRATED MANAGEMENT AND COOPERATIVE LINKAGES IN THE MANAGEMENT OF INDUSTRIAL CLUSTERS 279
Shukhrat Sharifboyevich Roziyev
ОБОСНОВАНИЕ И РАЗРАБОТКА КОМБИНИРОВАННОЙ ТЕХНОЛОГИИ ИЗВЛЕЧЕНИЯ ЗОЛОТА ИЗ ЛЕЖАЛЫХ ХВОСТОВ ЗОЛОТОИЗВЛЕКАТЕЛЬНЫХ ФАБРИК 287
Рахмонов Нурали, Хожиева Зулфизар
UCH QATLAMLI KONUSSIMON QOBIQNING BO‘YLAMA-RADIAL TEBRANISH TENGLAMALARINING SONLI YECHIMI 293
Isroilov Sherzod, Usmonov Olim, Sattorov Muhammad, Rahmonova Laylo
MAHALLIY BUDJETLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI ZAXIRA JAMG‘ARMASI VA YASHIL BUDJETLASHTIRISH ORQALI TA’MINLASH 299
Choriyev Xolbek Shoniyozovich
MODERN APPROACHES TO THE DIGITALIZATION OF HISTORICAL AND ARCHITECTURAL HERITAGE OBJECTS BASED ON BIM TECHNOLOGIES 309
Ismoilova Moxigul Baxtiyar qizi
BALAND BINOLARGA ALPINISTLIK ANJOMLARI YORDAMIDA KO‘TARILISH VA TUSHISH JARAYONIDA HARBIY XIZMATCHILARNING RUHIY HOLATI VA PSIXOLOGIK BARQARORLIGI 313
Xolmatov Alisher Ahmedovich
O‘ZBEKISTONDA VENCHUR KAPITALI ORQALI LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH 316
Abduraximova Shahruzaxon Sarvar qizi

РАЗВИТИЕ СИСТЕМ МЕНЕДЖМЕНТА МЕЖДУНАРОДНЫХ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ САНКЦИОННЫХ ОГРАНИЧЕНИЙ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВОДСТВЕННОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН) 322
Тимаев Джалиль Асламбекович
TA'LIM TIZIMIGA OID LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH VA BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBALARI 328
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich
ELEKTROMOBIL VA GIBRID AVTOMOBILLARINING EKOLOGIK SAMARADORLIGINI DIAGNOSTIKA QILISH USULLARI 334
Egamnazarov Bexzod Bahromjon o'g'li
IMPROVING THE METHODOLOGY FOR ECONOMIC ANALYSIS OF CONSTRUCTION SERVICE COSTS AT SOCIAL FACILITIES 340
Gapparov Azim Kayumovich
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BOSHQARISHDA IQTISODIY DIAGNOSTIKA VA KADRLAR SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 347
Annaqulov Kamol Xasanovich
ОТВЕТСТВЕННАЯ ЦИФРОВАЯ ОЦЕНКА КРЕДИТОСПОСОБНОСТИ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОСТИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ И ФИНАНСОВОЙ ИНКЛЮЗИИ В УЗБЕКИСТАНЕ 357
Шахабутдинова Муаттар Зиятходжаевна
OKSIDLANISHGA UCHRAGAN MIS-PORFIR MA'DANLARINI MODDIY TARKIBINI O'RGANISH 364
Мехрожбону Очилова
OKSIDLANISHGA UCHRAGAN MIS-PORFIR MA'DANLARINI MODDIY TARKIBINI O'RGANISH 369
Maxmarejabov Dilmurod, Abdurasulova Zarina, Toshpo'latov G'ulomjon
METHODOLOGY FOR THE INTEGRATED ASSESSMENT OF RESOURCES AFFECTING PRODUCT QUALITY AND SAFETY AT TEXTILE ENTERPRISES 376
N.S.Sotivoldieva, Sh. U. Anafiyayeva
QISHLOQ HUDUDLARIDA TURIZM XIZMATLARI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH VA BANDLIK BARQARORLIGINI OSHIRISH 385
Yoriyeva Farangiz Murodilloyevna
O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TURISTIK ZONALAR VA KLASTERLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI 395
Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich

O‘ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TURISTIK ZONALAR VA KLASTERLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishda turistik zonalar va klasterlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, turistik zonalar va klasterlar faoliyatini integratsiyalashgan boshqaruv asosida tashkil etish, xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirish va iqtisodiy manfaatlarni ekologik hamda ijtimoiy barqarorlik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish masalalariga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari turistik hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, mahalliy iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish va turizmning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror turizm, turistik zonalar, turistik klasterlar, iqtisodiy samaradorlik, hududiy rivojlanish, integratsiyalashgan boshqaruv.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты повышения экономической эффективности туристских зон и кластеров в контексте развития устойчивого туризма в Узбекистане. Особое внимание уделяется интегрированному управлению туристскими зонами и кластерами, диверсификации туристских услуг, а также согласованию экономических интересов с принципами экологической и социальной устойчивости. Полученные результаты могут служить основой для разработки научно-практических рекомендаций, направленных на повышение конкурентоспособности туристских территорий, стимулирование местной экономической активности и обеспечение долгосрочного устойчивого развития туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: устойчивый туризм, туристские зоны, туристские кластеры, экономическая эффективность, региональное развитие, интегрированное управление.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of enhancing the economic efficiency of tourism zones and clusters in the context of sustainable tourism development in Uzbekistan. Particular attention is given to the integrated management of tourism zones and clusters, the diversification of tourism services, and the alignment of economic interests with the principles of environmental and social sustainability. The findings provide a conceptual basis for developing research-based and practical recommendations aimed at improving the competitiveness of tourism destinations, stimulating local economic activity, and ensuring the long-term sustainability of tourism development in Uzbekistan.

Keywords: sustainable tourism, tourism zones, tourism clusters, economic efficiency, regional development, integrated management.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida turizm jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, hududiy infratuzilmani rivojlantirish hamda aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, madaniy merosni muhofaza qilish, mahalliy aholi manfaatlarini ta’minlash va turistik destinatsiyalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini saqlab qolish masalalari turizmni barqaror rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Mazkur sharoitda barqaror turizm (sustainable tourism) konsepsiyasi iqtisodiy samaradorlik, ekologik muvozanat va ijtimoiy mas’uliyatni o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi strategik yondashuv sifatida namoyon bo‘lmoqda. Barqaror turizmni rivojlantirishda turistik zonalar va klasterlar alohida iqtisodiy ahamiyatga ega. Turistik zonalar hududning tabiiy, tarixiy-madaniy va rekreatsion salohiyatidan kompleks foydalanish, turistik infratuzilmani rivojlantirish hamda investitsiyalarni jalb etish uchun tashkiliy-iqtisodiy sharoit yaratadi. Turistik klasterlar esa mehmonxonalar, transport tashkilotlari, umumiy ovqatlanish korxonalari, turoperatorlar, gidlar, hunarmandchilik subyektlari va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning o‘zaro hamkorligini mustahkamlash orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini shakllantiradi. Ushbu ikki mexanizmning o‘zaro uyg‘unlashuvi turistik mahsulotlarning diversifikatsiyasini kengaytirish, xizmatlar sifatini yaxshilash,

resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va hududlarda iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, turistik zonalar va klasterlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish investitsiya resurslaridan maqsadli foydalanish, turistik xizmatlar o‘rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish, infratuzilma imkoniyatlarini turistik talab bilan muvofiqlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish bilan uzviy bog‘liq. Shuningdek, turistik faoliyatning mavsumiyligi, hududlar o‘rtasidagi infratuzilmaviy tafovutlar, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari va ekologik barqarorlikni ta’minlash masalalarini hisobga olish turistik zonalar hamda klasterlarning iqtisodiy natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli ularning samaradorligini turistlar soni va turizm xizmatlari hajmi bilan bir qatorda, investitsiyalarning qaytimi, mahalliy bandlik, turistik xizmatlardan olinadigan daromad, mahalliy tadbirkorlikning rivojlanishi va ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlari asosida kompleks baholash maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston sharoitida mazkur masala alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy landshaftlari, milliy urf-odatlari, gastronomik imkoniyatlari va hududlar kesimidagi turistik resurslar xilma-xilligi turizmni iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq ushbu salohiyatdan to‘liq foydalanish turistik hududlarning ixtisoslashuvini chuqurlashtirish, mavjud turistik zonalar faoliyatini mahalliy iqtisodiyot bilan integratsiyalash, turistik klasterlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va xizmatlar zanjirining iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bevosita bog‘liq. Ayniqsa, turistik resurslarga boy hududlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilar, hunarmandlar, oilaviy mehmon uylari, transport xizmatlari va boshqa kichik biznes subyektlarini yagona turistik qiymat zanjiriga jalb etish hududiy daromadlarning oshishiga hamda iqtisodiy manfaatlarning kengroq taqsimlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Turistik zonalar va klasterlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan boshqaruv yondashuvi muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyat, turizm tashkilotlari, investorlar, tadbirkorlik subyektlari va mahalliy aholi o‘rtasidagi manfaatlarni muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Bunda turistik hududlarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, infratuzilmaviy loyihalarni o‘zaro muvofiqlashtirish, umumiy marketing faoliyatini yo‘lga qo‘yish, raqamli axborot platformalaridan foydalanish va natijadorlik ko‘rsatkichlarini muntazam monitoring qilish asosiy boshqaruv yo‘nalishlari hisoblanadi. Mazkur mexanizmlarning samarali tashkil etilishi alohida turizm subyektlari faoliyatini yaxlit hududiy iqtisodiy tizimga birlashtirish va uzoq muddatli raqobat ustunliklarini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, turistik zonalar va klasterlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy jihatlarini hisobga olishni ham talab qiladi. Turistik oqimlarning ortishi tabiiy resurslarga bosimni kuchaytirishi, chiqindilar hajmining ko‘payishiga va mahalliy infratuzilmaga qo‘shimcha yuklama tushishiga olib kelishi mumkin. Shu bois iqtisodiy natijalarni oshirish bilan bir qatorda tabiiy va madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, energiya va suv resurslaridan oqilona foydalanish, mahalliy aholining turizm daromadlaridagi ishtirokini kengaytirish hamda turistik xizmatlarning inklyuzivligini ta’minlash muhim hisoblanadi. Demak, turistik zonalar va klasterlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan mexanizmlar iqtisodiy manfaatdorlikni ekologik mas’uliyat va ijtimoiy barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishi lozim.

Mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqot olib borish turistik zonalar va klasterlarning iqtisodiy faoliyatini o‘zaro bog‘liq tizim sifatida o‘rganish, mavjud imkoniyatlar va cheklovlarni aniqlash hamda samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy yechimlarni asoslash zarurati bilan belgilanadi. Xususan, turistik zonalar va klasterlar faoliyatida investitsiyalar, infratuzilma, xizmatlar diversifikatsiyasi, hududiy hamkorlik va barqaror boshqaruv omillarining o‘zaro ta’sirini aniqlash O‘zbekiston turizm sohasining uzoq muddatli rivojlanishi uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi O‘zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish sharoitida turistik zonalar va klasterlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash hamda turistik resurslardan samarali foydalanish, investitsiyalarni jalb etish, hududiy hamkorlikni kuchaytirish va integratsiyalashgan boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Belgilangan maqsadga erishish uchun turistik zonalar va klasterlarning barqaror turizm tizimidagi iqtisodiy ahamiyatini o‘rganish, ularning samaradorligiga ta’sir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy omillarni aniqlash, turistik infratuzilma va xizmatlar kooperatsiyasining imkoniyatlarini tahlil qilish hamda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalarni uyg‘unlashtiruvchi rivojlanish yo‘nalishlarini asoslash nazarda tutiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klaster yondashuvining nazariy asoslari Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan raqobat ustunligi konsepsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Porter (1990) klasterlarni muayyan hududda joylashgan, o‘zaro aloqador korxonalar va institutlarning geografik jihatdan jamlangan tizimi sifatida talqin qiladi. Ushbu

yondashuv turizm sohasiga tatbiq etilganda, mehmonxonalar, transport tashkilotlari, umumiy ovqatlanish korxonalari, turoperatorlar, madaniy meros obyektlari va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning o‘zaro hamkorligi hududiy raqobatbardoshlikni oshiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Klaster ishtirokchilarining hamkorligi umumiy marketing xarajatlarini optimallashtirish, xizmatlar zanjirini takomillashtirish, bilim va innovatsiyalar almashinuvini kuchaytirish hamda mahalliy iqtisodiy qiymatni oshirish imkonini beradi. Allayorov (2019) turizmni barqaror rivojlantirishda klaster yondashuvini qo‘llash masalasini o‘rganib, hududiy turistik klaster tushunchasi va uning shakllanish xususiyatlariga e’tibor qaratadi. Mazkur yondashuv turistik resurslar hamda xizmatlarni yagona tizimda birlashtirish orqali destinatsiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslarini kengaytiradi. Shu bilan birga, klasterlarning mavjudligi bilan ularning real iqtisodiy natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash, samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash va boshqaruv mexanizmlarining natijadorligini o‘lchash masalalari alohida empirik tadqiqotlarni talab qiladi.

Turizmning barqarorligi va hududiy iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi munosabatlar Tyagi (2024) tomonidan amalga oshirilgan tizimli adabiyotlar sharhida ham yoritilgan. Muallif 2013–2023-yillarda chop etilgan tadqiqotlarni tahlil qilib, barqaror turizm, hududiy rivojlanish, ekologik omillar, raqobatbardoshlik va turizmning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini o‘zaro bog‘liq ilmiy yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv turistik zonalar samaradorligini faqat moliyaviy natijalar asosida emas, balki hududiy rivojlanish va ekologik barqarorlik bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar orqali ham baholash zarurligini asoslaydi . Managing Tourism Development for Sustainable and Inclusive Recovery nomli tahliliy hisobotda turizmni barqaror va inklyuziv rivojlantirish uchun davlat siyosati, xususiy sektor va mahalliy hamjamiyat o‘rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik muhimligi ta’kidlangan. Hisobotda turizm natijalarini qayta ko‘rib chiqish, barqaror biznes modellarini rivojlantirish, boshqaruv darajalari o‘rtasidagi muvofiqlikni kuchaytirish va natijadorlikni o‘lchash tizimlarini takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida keltiriladi. Ushbu tavsiyalar turistik zonalar va klasterlarni rivojlantirishda iqtisodiy o‘sishni ekologik hamda ijtimoiy maqsadlar bilan birgalikda ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida turistik klasterlarning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni ham mahalliy tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lmoqda. Anvarova (2025) turistik klasterlarning shakllanish mexanizmlari, infratuzilma, xizmatlar sifati, investitsiyaviy jozibadorlik va marketing faoliyati bilan bog‘liq jihatlarini tahlil qiladi. Muallifning yondashuvi klasterlar hududiy iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish, bandlikni oshirish va turistik salohiyatdan samaraliroq foydalanishda muhim mexanizm bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Karimova (2025) esa turistik mikroklasterlarning kichik biznes subyektlari o‘rtasidagi hamkorlik, mahalliy o‘ziga xoslikni rivojlantirish va resurslardan oqilona foydalanishdagi ahamiyatini yoritadi. Ushbu ishlar yirik turistik zonalar bilan bir qatorda kichik turistik korxonalar va mahalliy xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasidagi kooperatsiyani ham rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Turistik klasterlar faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashga oid tadqiqotlarda ham kompleks yondashuvning ahamiyati kuchaymoqda. Pulotovning klaster boshqaruvini baholashga bag‘ishlangan tadqiqotida iqtisodiy natijalar bilan bir qatorda bandlik, uy xo‘jaliklari daromadlari, infratuzilma, madaniy merosni muhofaza qilish, mahalliy iqtisodiyotga integratsiya va boshqaruv samaradorligini hisobga olish taklif etiladi. Bunday yondashuv turistik klasterlarning natijadorligini ko‘p mezonli tizim orqali o‘rganish imkonini beradi. Biroq mazkur ko‘rsatkichlarni turistik zonalar darajasidagi investitsiyaviy va boshqaruv qarorlari bilan bog‘laydigan yagona amaliy mexanizmni ishlab chiqish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Umuman olganda, o‘rganilgan ilmiy manbalar uchta asosiy xulosani shakllantirishga imkon beradi. Birinchidan, klasterli hamkorlik turistik hududlarning raqobatbardoshligi va iqtisodiy faolligini oshirish vositasidir. Ikkinchidan, barqaror turizm samaradorligini baholashda iqtisodiy ko‘rsatkichlar ekologik va ijtimoiy natijalar bilan uyg‘unlashtirilishi lozim. Uchinchidan, turistik zonalar va klasterlarning samarali rivojlanishi uchun davlat, biznes va mahalliy hamjamiyat manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi integratsiyalashgan boshqaruv zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalaniladi. Turistik zonalar va klasterlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari barqaror rivojlanish tamoyillari asosida o‘rganiladi. Shuningdek, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy indikatorlar tizimi shakllantirilib, ularning asosida turistik hududlar faoliyatini kompleks baholashga yo‘naltirilgan integratsiyalashgan konseptual model taklif etiladi. Tadqiqotning axborot bazasini ilmiy adabiyotlar, rasmiy statistik ma’lumotlar va turizm sohasiga oid tahliliy materiallar tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili turistik zonalar va klasterlarni rivojlantirish masalalari turli yo‘nalishlarda

o‘rganilganini ko‘rsatadi. Barqaror turizm sharoitida ushbu ikki mexanizmning iqtisodiy samaradorligini yagona boshqaruv tizimi doirasida oshirish ularning imkoniyatlarini yanada kengroq o‘rganish va o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash uchun muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy yo‘nalishi turistik zonalarning infratuzilmaviy va investitsiyaviy imkoniyatlarini turistik klasterlarning o‘zaro kooperatsiyasi, xizmatlar integratsiyasi va mahalliy iqtisodiy qiymat yaratish salohiyati bilan samarali bog‘lash mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat. Bunday yondashuv turistik resurslardan oqilona foydalanish, investitsiyalarni samarali taqsimlash, xizmatlar zanjirini rivojlantirish va barqarorlik natijalarini baholashga oid boshqaruv qarorlarini o‘zaro muvofiqlashtirish imkonini beradi. Ushbu muammoni hal etish uchun quyidagi masalalarni birgalikda ko‘rib chiqish lozim:

- turistik zonalar va klasterlar faoliyatining iqtisodiy natijalarini o‘zaro bog‘liq indikatorlar asosida baholash;
- davlat, xususiy sektor va mahalliy hamjamiyat o‘rtasidagi institutsional hamkorlikni kuchaytirish;
- investitsiyalar, infratuzilma va xizmatlar diversifikatsiyasining samaradorlikka ta’sirini aniqlash;
- iqtisodiy o‘sishni ekologik muhofaza va ijtimoiy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish;
- samaradorlik monitoringi natijalarini boshqaruv qarorlariga tatbiq etish.

Shu nuqtayi nazardan, maqolaning ilmiy yo‘nalishi turistik zonalar va klasterlarni alohida iqtisodiy subyektlar yig‘indisi sifatida emas, balki umumiy maqsadlar, resurslar va natijadorlik ko‘rsatkichlari asosida faoliyat yurituvchi integratsiyalashgan hududiy turizm tizimi sifatida o‘rganishga qaratiladi. Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, O‘zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishda turistik zonalar va klasterlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi mualliflik konseptual modeli taklif etildi (1-rasm).



1-rasm. Barqaror turizmni rivojlantirishda turistik zonalar va klasterlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishning integratsiyalashgan modeli[1]

Tadqiqotda taklif etilgan model to‘rtta o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismdan iborat. Birinchi bosqichda turistik zonalar va klasterlarning rivojlanish maqsadlari hududiy strategiyalar, davlat siyosati va manfaatdor tomonlar ishtiroki asosida belgilanadi. Ikkinchi bosqichda turistik zonalarning infratuzilma va resurs salohiyati klaster ishtirokchilarining xizmat ko‘rsatish, marketing va innovatsion imkoniyatlari bilan birlashtiriladi. Uchinchi bosqichda investitsiyalarni samarali taqsimlash, xizmatlarni diversifikatsiya qilish va mahalliy iqtisodiy qiymat zanjirini kengaytirish mexanizmlari amalga oshiriladi. To‘rtinchi bosqichda esa iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalar indikatorlar asosida baholanib, monitoring natijalari keyingi boshqaruv qarorlariga yo‘naltiriladi. Modelning muhim jihati shundaki, iqtisodiy samaradorlik barqarorlikdan ajratilgan holda talqin

1 Muallif ishlanmasi.

qilinmaydi. Xususan, turistik daromadning oshishi tabiiy resurslarga haddan tashqari bosim yoki mahalliy aholi manfaatlarining cheklanishi hisobiga yuz bermasligi kerak. Shu sababli iqtisodiy natijalar ekologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Modelni amaliyotga tatbiq etishda quyidagi indikatorlardan foydalanish mumkin (1-jadval):

1-jadval

Barqaror turizmni rivojlantirishda turistik zonalar va klasterlar iqtisodiy samaradorligini baholash indikatorlari tizimi[2]

Baholash yo‘nalishi	Asosiy ko‘rsatkichlar
Iqtisodiy samaradorlik	Turizm daromadlari, investitsiyalar hajmi, bir turistga to‘g‘ri keladigan xarajatlar
Tadbirkorlik va bandlik	Yangi ish o‘rinlari, mahalliy korxonalar ulushi, klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlik
Infratuzilmaviy rivojlanish	Turistik xizmatlar qamrovi, transport va raqamli infratuzilma sifati
Ekologik barqarorlik	Suv va energiya sarfi, chiqindilarni boshqarish, tabiiy resurslarni muhofaza qilish
Ijtimoiy barqarorlik	Mahalliy aholining turizmdan manfaatdorligi, bandlik imkoniyatlari, madaniy merosni saqlash

Ushbu indikatorlar dastlabki konseptual taklif hisoblanadi. Ularning yakuniy tarkibi mavjud statistik ma’lumotlar, hududiy xususiyatlar va ekspertlar bahosi asosida aniqlashtirilishi lozim.

O‘zbekistonda turistik zonalar va klasterlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, hududiy turistik resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy manfaatlarni ekologik va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan. Model turistik zonalarning infratuzilmaviy va investitsiyaviy imkoniyatlarini turistik klasterlarning ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, marketing va innovatsion salohiyati bilan o‘zaro bog‘lashga asoslanadi.

Modelning konseptual mohiyati turistik zonalar va klasterlar faoliyatini alohida iqtisodiy yo‘nalishlar sifatida emas, balki yagona hududiy turizm tizimining o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlari sifatida tashkil etishdan iborat. Bunda turistik zonalar tabiiy, tarixiy-madaniy va rekreatsion resurslarni turistik faoliyatga jalb etish, infratuzilmani rivojlantirish va investitsiyalarni joylashtirish uchun hududiy asos vazifasini bajaradi. Turistik klasterlar esa mazkur resurslardan foydalanish jarayonida turizm korxonalari, transport tashkilotlari, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalari, turoperatorlar, hunarmandlar va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi. Modelni ishlab chiqishda klasterlar nazariyasi, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, hududiy iqtisodiy rivojlanish yondashuvi va destinatsiyalarni integratsiyalashgan boshqarish tamoyillaridan foydalaniladi. Ushbu nazariy yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi turistik hududlarda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, iqtisodiy qiymat yaratish zanjirini kengaytirish va turistik xizmatlarning raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. Turistik zonalar va klasterlarda iqtisodiy manfaatlarni ekologik va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari bilan

2 Muallif ishlanmasi.

uyg‘unlashtirish modeli[3]

Birinchi bosqichda hududning turistik resurslari, mavjud infratuzilmasi, turistik oqimlar va investitsiyaviy imkoniyatlari baholanadi. Bu jarayon turistik zonalarning ixtisoslashuvini aniqlash hamda istiqbolli klasterlarni shakllantirish uchun dastlabki axborot bazasini yaratadi. Ikkinchi bosqichda turistik zonalar va klasterlar o‘rtasidagi funksional hamkorlik mexanizmlari shakllantiriladi. Bunda turistik mahsulotlarni birgalikda ishlab chiqish, umumiy marketing strategiyalarini amalga oshirish, transport va axborot xizmatlarini muvofiqlashtirish hamda mahalliy tadbirkorlarni turistik xizmatlar zanjiriga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchi bosqichda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan, investitsiya loyihalarining natijadorligini baholash, xizmatlar turini kengaytirish, raqamli platformalardan foydalanish, mahalliy mahsulotlar va xizmatlarning turistik qiymat zanjiridagi ulushini oshirish nazarda tutiladi. To‘rtinchi bosqichda modelning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalari baholanadi. Bunda turistik daromadlarning o‘sishi bilan bir qatorda bandlik, mahalliy aholi manfaatlari, tabiiy resurslardan foydalanish va madaniy merosni muhofaza qilish natijalari ham hisobga olinadi. Beshinchi bosqich monitoring va qayta aloqani ta’minlaydi. Indikatorlar asosida aniqlangan natijalar rejalashtirilgan maqsadlar bilan taqqoslanadi va zarur hollarda boshqaruv strategiyalariga tuzatishlar kiritiladi. Shu tariqa model bir martalik boshqaruv sxemasi emas, balki doimiy takomillashtirishga asoslangan tizim sifatida ishlaydi.

Modelni amaliyotga tatbiq etish va uning natijadorligini aniqlash uchun iqtisodiy, infratuzilmaviy, tashkiliy, ekologik hamda ijtimoiy indikatorlardan iborat kompleks baholash tizimidan foydalanish taklif etiladi. Indikatorlar tizimining asosiy vazifasi turistik zonalar va klasterlarning mavjud resurslardan foydalanish darajasini, iqtisodiy natijalarini, hamkorlik samaradorligini va barqaror rivojlanishga qo‘shayotgan hissasini aniqlashdan iborat. Ushbu tizim nafaqat erishilgan natijalarni o‘lchash, balki mavjud muammolarni aniqlash, rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash va boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslangan holda qabul qilish imkonini ham beradi (2-jadval).

2-jadval

Iqtisodiy, infratuzilmaviy, tashkiliy, ekologik hamda ijtimoiy indikatorlar baholash usuli[4]

Indikatorlar guruhi	Asosiy ko‘rsatkichlar	Baholash maqsadi
Iqtisodiy rivojlanish	Turistik xizmatlardan tushgan daromad, qo‘shilgan qiymat, rentabellik, bir turistga to‘g‘ri keladigan xarajatlar	Turistik faoliyatning moliyaviy natijadorligini aniqlash
Investitsiya hajmi	Jalb qilingan investitsiyalar hajmi, investitsiyalarning qaytimi, yangi loyihalar soni	Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholash
Klasterlar faoliyati	Klaster ishtirokchilari soni, qo‘shma loyihalar, mahalliy yetkazib beruvchilar ulushi	Korxonalar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik darajasini aniqlash
Infratuzilma modernizatsiyasi	Transport qulayligi, turistik obyektlarga kirish imkoniyati, xizmatlar qamrovi, raqamli infratuzilma	Hududning turistik xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini baholash
Ekologik muhofaza	Suv va energiya sarfi, chiqindilarni qayta ishlash ulushi, tabiiy resurslarni muhofaza qilish	Turizmning ekologik ta’sirini aniqlash
Ijtimoiy farovonlik	Turizmda yaratilgan ish o‘rinlari, mahalliy aholi bandligi, aholi ishtirokidagi loyihalar	Turizmning mahalliy aholi farovonligiga ta’sirini baholash

Ushbu guruhlar bir-birini to‘ldiradi. Turistik xizmatlardan tushgan daromadning ortishi iqtisodiy samaradorlikni ifodalasa, mahalliy yetkazib beruvchilar ulushining oshishi iqtisodiy manfaatlarning hudud ichida saqlanishini ko‘rsatadi. Suv va energiya sarfining kamayishi esa xizmatlar hajmi saqlangan yoki oshgan sharoitda resurslardan foydalanish samaradorligini baholashda ishlatiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishda turistik zonalar va klasterlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish iqtisodiy manfaatlarni ekologik muhofaza hamda ijtimoiy barqarorlik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi. Turistik zonalarning infratuzilmaviy va investitsiyaviy imkoniyatlarini turistik klasterlarning o‘zaro hamkorligi, innovatsion faoliyati va xizmatlar integratsiyasi bilan birlashtirish hududiy turizm salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi. Tadqiqot asosida iqtisodiy

3 Muallif ishlanmasi.
4 Muallif ishlanmasi.

manfaatlarni ekologik va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan modelni qo‘llash maqsadga muvofiq. Ushbu model turistik hududlarning iqtisodiy natijalarini baholash bilan bir qatorda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, mahalliy aholi manfaatlarini ta’minlash va turistik xizmatlar qiymat zanjirini rivojlantirishga qaratilgan kompleks boshqaruv yondashuvini nazarda tutadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Integratsiyalashgan boshqaruvni rivojlantirish. Turistik zonalar, klaster ishtirokchilari, mahalliy hokimliklar va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish hamda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish lozim.

2. Iqtisodiy samaradorlikni kompleks baholash. Turistik zonalar va klasterlar faoliyatini baholashda daromad, investitsiyalar rentabelligi, bandlik, mahalliy yetkazib beruvchilar ulushi, resurslar sarfi va chiqindilarni qayta ishlash kabi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy indikatorlardan foydalanish tavsiya etiladi.

3. Mahalliy iqtisodiy manfaatlarni kengaytirish. Turistik xizmatlar zanjiriga mahalliy tadbirkorlar, hunarmandlar, fermerlar va aholi vakillarini jalb etish orqali turizmdan olinadigan daromadning hududda qoladigan ulushini oshirish zarur.

4. Ekologik samaradorlikni ta’minlash. Turistik hududlarda suv va energiya tejamkor texnologiyalarini joriy etish, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda tabiiy va madaniy resurslarni muhofaza qilish choralarini kuchaytirish lozim.

5. Raqamli monitoring tizimini joriy etish. Turistik zonalar va klasterlarning iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy ko‘rsatkichlarini muntazam kuzatish, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarida qo‘llashga xizmat qiluvchi raqamli monitoring mexanizmini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotda taklif etilgan yondashuv turistik zonalar va klasterlar faoliyatini faqat iqtisodiy daromad bilan emas, balki ekologik mas’uliyat va ijtimoiy natijalar bilan birgalikda baholashga imkon beradi. Modelning amaliy samaradorligini aniqlash uchun uni O‘zbekistonning muayyan turistik hududlari misolida sinovdan o‘tkazish, tegishli statistik ma’lumotlar asosida indikatorlarni hisoblash va natijalarni qiyosiy tahlil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бердиёров, Б. С. (2026). ПРИМЕНЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ ЭКОТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ. Asian journal of multidisciplinary research, 3(10), 41-47.
2. Sodiqovich, B. B. (2025). O ‘ZBEKISTON SHAROITIDA EKOLOGIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINING TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI. Modern education and development, 36(1), 354-358.
3. Abdullayevich, X. U., & Shukrullayevich, Y. S. (2026, May). IMPROVING ECONOMIC MECHANISMS FOR EFFICIENT RESOURCE UTILIZATION IN CONSTRUCTION ENTERPRISES. In International Congress on Economics, Management and Business Studies (Vol. 1, No. 4, pp. 204-209).
4. Shukrullayevich, Y. S. (2026, March). THE IMPORTANCE OF STRATEGIC VISION IN THE MANAGEMENT OF TEXTILE CORPORATIONS. In International Congress on Economics, Management and Business Studies (Vol. 1, No. 3, pp. 25-38).
5. Сайфутдинов, Ш. С. (2021). Гастрономический туризм как фактор устойчивого развития туризма в Узбекистане. In Инновационные технологии управления и стратегии территориального развития туризма и сферы гостеприимства (pp. 666-673).
6. Sultonovich, S. S., & Kulshreshtha, S. (2019). The main directions of development of international tourism in Uzbekistan. International Journal of Tourism & Travel, 12.
7. Qodirova Xolida Salimovna. (2024). ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI. Marketing Journal, 10, 87-94. https://doi.org/10.67668/mj/2024iss10/1290
8. Qodirova Xolida Salimovna. (2025, June 9). QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI. https://doi.org/10.5281/zenodo.15622331
9. Dostonbek, T. D. (2026). Push and Pull Motivations for Participation in Adventure Tourism: Foreign Tourist Perspectives. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 7(1), 436-445.
10. Tilovmurodov, D. (2024). Imkoniyati cheklanganlarga to‘siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish istiqbollari. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 2(1).
11. https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss1/a823
12. Abdivaxitovna, S. (2023). INNOVATIVE TENDENCIES OF TOURISM AND HOTEL BUSINESS DEVELOPMENT IN GLOBALIZATION. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (7 (19)), 305-314.
13. Ro‘ziqulova Mahliyo G‘ayratovna. (2026). EXTREME TOURISM AND SAFETY ISSUES. TA’LIM FIDOYILARI. https://doi.org/10.5281/zenodo.19664848
14. Turdiyeva, N. A. q. (2026). Hududiy turizmni rivojlantirishda davlat siyosati va maqsadli dasturlarining institutsional hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi. Ilm-Fan, volume(issue), xx–xx. https://e-conference.uz/index.php/ilm-fan/article/view/121

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100